

O‘ZBEKISTONDA MUSULMON TASHKILOTLARINI TUGATISH UCHUN KURASHNING BOSHLANISHI

Aslonova Niginaxon Akmal qizi

Navoiy Davlat Pedagogika Insitituti 2-kurs magistranti.

AsliddinNigina1505@gmail.com.

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘tagan asrning 20-30-yillaridasovet hukumati jazo idoralari tomonidan ta‘qib va zulmga uchragan musulmon tashkilotlarning ayanchli taqdiri tasvirlangan.

***Kalit so‘zlar:** Sovet hukumati, jazoni o‘tash muassalari, din, ulamo, repressiya, quvg‘in, surgun, daxriylik, vaqf mulklari.*

ABSTRACT

The article describes the tragic fate of muslim organizations that were persecuted and oppressed by the penal authorities of the Soviet government in the 1920s and 1930s.

***Keywords:** Soviet government, penitentiaries, religion, cleric, repression, persecution, exile , atheism, vaqf properties.*

1.KIRISH.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining poytaxti bo‘gan Buxoro shahridagi “Xalq Uyi” binosida 1925-yil fevralda Sovetlarning 1- umum o‘zbek qurultoyi ochildi. Qurultoyda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O‘zSSR) tuzilgankigi to‘g‘rida deklaratsiya qabul qilindi.O‘zbekiston Respublikasi hukumati boshlig‘i etib Fayzullo Xo‘jayev (1896-1938yy), Respublika Sovetlarining markaziy Ijroiya qo‘mitasi Raisi lavozimiga “Qo‘shchi” soyuzi arbobi,oddiy dehqon Yo‘ldosh

Oxunboboyev (1885-1943-yy) saylandi. O‘zbekiston kompartiyasining kotibi vazifasini esa Akmal ikromov (1898-1938-yy) bajaradigan bo‘ldi.1925-yil 13-may kuni SSSR Sovetlarining 3- qurultoyida O‘zbekiston rasman Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi tarkibiga qabul qilinganligi tasdiqlandi.Shunday qilib, mustabid tuzum iskanjasiga unga tobe bo‘lgan ,rasman mustaqil,amalda markazning topshirig‘i va ko‘rsatmalari asosida og‘ishmay ish olib borgan O‘zbekiston SSR tashkil topdi.O‘zbekiston SSR tarkibiga Turkiston avtonom

Sovet Respublikasidan Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarining kata qismi , Buxoro XSRdan uning markaziy va g‘arbiy qismlari bo‘lgan Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalari, G‘arbiy orolbo‘yi atrofi, Xorazm vohasi va sharqda BXSrning sobiq Sharqiy Buxoro hududi Tojikiston ASSR(1929 yilgacha) sifatida kiritildi.

2. O‘zbekiston SSRda musulmon tashkilotlarni tugatish uchun kurash.

O‘zbekiston SSR tashkil topishi arafasida RKP(b) Markaziy Komiteti va RSFSR hukumati diniy muassasa va tashkilotlarga munosabatda o‘zining 1920-1920-yillardagi nisbatan “yumshoqlik” siyosatini o‘zgartirib, RKP(b)ning XII syezdida (1923-yil aprel) dinga qarshi keskin tashviqot yo‘lga qo‘yish to‘risida maxsus revolyutsiya qabul qilinib, unda respublikaning o‘n minglab fuqarolari diniy xurofotlardan uzil kesil va tamomila forig‘ bo‘lishi aloxida qayd qilingan edi.¹

Bu dahriylik siyostini ommaviy ravishda yuritishga turtki bo‘lgan revolyutsiya ko‘p o‘tmay O‘zbekistonga ham yetib keldi, Xolbuki 1922-yilning yozi va kuzida qabul qilingan, tadqiqotimizning birinchi bandida tahlil qilingan Turkiston avtonom Sovet Respublikasi Ijroiya qo‘mitasining “vaqflar to‘g‘ris Ijroiya qo‘mitasining “vaqflar to‘g‘risida”gi №75, №164, №173- raqamli bu buyruqlari bilan diniy muassasa va tashkilotlar hamda ularning moddiy asosi bo‘lgan vaqf mulkalrini tiklash masalasi kun tartibiga qo‘yilgan edi.

Milliy davlat chegaralanishi tufayli vujudga kelgan O‘zbekiston SSr tarkibidagi sobiq Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari ijtimoiy- iqtisodiy hayotida ham vaqflar

¹ Qonun,din,cherkov. T.:O‘zbekiston,1987-B.49-50.

hamda diniy muassasa va tashkilotlar ta'sirli mavqeyga ega bo'lganligini qayd etish o'rirlidir.

Turkiston ASSR vaqf mulklarini tiklash bilan bog'liq Turkiston ASSR MIQning I dekreti bilan bir paytda (1922 yil iyun №75) Buxoro Xalq Respublikasida Abdurauf Fitrat tomonidan 19 moddadan iborat "vaqf ishlari" haqidagi maxsus loyiha ishlab chiqilgan edi.¹

Loyihada vaqf mulkalari o'tmishda buxoro xalqining yuksalishiga sabab bo'lgan muhim omil bo'lganligi, vaqfni ahamiyatsiz qoldirmoq xalqimiz manfaati, ruhiyatiga mos kelmasligi bayon qilingan. Vaqf mulklari (yer, do'kon, saroy, bozor, hovli joylar...) hukumat solig'idan ozod etib, faqatgina "ushr" solig'I olishi saqlab, Maorif nozirligi huzurida Markaziy vaqf mudirligini tuzish, uni besh sho'bagacha bo'lish (diniy, ilmiy, ijara, moliya, xo'jalik) Asosiy vaqflarni 6 qismga taqsimlash (masjid va masjid ishlari, maktab va kutubxona, mahkama, oshxona, avlodiy, Makka va Madina vaqflari), mutavallilar faoliyatini nazorat qilib turish, vaqf mudiriyati xazinasini vujudga keltirish (oltin oqcha hisobida) masalalari loyihadan o'rin olgan edi.²

Fitrat loyihasi bo'yicha vaqf idoralari har oyda bir marta MAorif Nozirligiga hisobot taqdim etib turishi kerak edi. Milliy Davlat Chegaralanishi arafasida ham 1924-yilning kuzigacha Respublikadagi vaqf mulklarini to'la hisobga olish uchun imkoniyat bo'lmadi. Bu masala 1923-yil 5-oktabrda bo'lib o'tgan butun Buxoro vaqf qurultoyi tomonidan vazidfa qilib qo'yilgan edi.³

1923 yil oktabrda bo'lib o'tgan Umumxorazm qurultoyi XXSRni XSSR deb nomladi. Qurultoyda qabul qilingan yangi konstitutsiya barcha yerlarni, shuningdek, vaqf mulklarini ham umumxalq mulki deb e'lon qildi. Ayniqsa vaqf mulklarini musodara qilish xalq ommasida ichida noroziliklarni keltirib chiqardi. 1924 yilning yanvarida Sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan umumxalq qo'zg'aloni harbiy kuchlar yordamida bostirildi. Ushbu voqealar Xorazmda Kommunistlarni o'zgacha siyosat

¹ Buxoro Axbori. 88-son,1922,29 iyun (arab imlosida).

² Buxoro Axbori. 89-son,1922,8 iyul,1922,15 iyul.

³ Buxoro Axbori. 212 son,1923,10 oktabr ro'yhat,Ozod Buxoro,1-son,1923,16 oktabr.

yuritishga majbur qild. 1924 yil aprelda XXSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining II sessiyasi IV qurultoy qarorini bekor qilib, vaqf yerlari yana masjid va madrasalar ixtiyoriga qaytarildi.

O‘zbekiston SSR tashkil topgandan keyin RKP(b)ning XII syezdida qabul qilingan propaganda, matbuot va agetatsiya masalalari yuzasidan revolutsiyasi¹ (1923 aprel) va RKP(b)ning XIII syezdida tasdiqlangan “qishloqda ishlash” to‘g‘risidagi revolutsiyasi² asosida O‘zbekiston Kompartiyasining 1-syezdidagi “dinga qarshi propaganda va turmush xurofotlariga qarshi kurash”³kabi revolutsiyalar qabul qilinadi.

Agitatsiya va propaganmda ishlariga partiya a‘zolari va komsomollarni, partiya va sovet aparati tarkibida faoliyat ko‘rstayotganayollarni keng jalb qilish muhimligi alohida uqtirilgan.

3. Diniy muassasa va tashkilotlarga sinfiylaracha yondashuv.

Sovet hukumati hali o‘zining siyosiy va ma‘muriy asoslarini mustahkamlashga ulgurmagan 1920-yillarda, kishilar ongidan dinni chiqarib tashlash siyosatini ijrochilari hisoblangan kommunistlar tarkibida ham asosiy diniy e‘tiqoddan yuz o‘girmagan xodimlar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Jumladan, 1923-yilda Buxoro kompartiyasi a‘zolarining 65,5% dinga e‘tiqod qiluvchilar bo‘lgan. 1923-yil aprel RKP(b) XII syezdi revolutsiyasida 30 millionli O‘rta Osiyo aholisining asosiy qismi diniy e‘tiqod bilan bog‘liqligi alohida ta‘kidlangan.⁴

Aslida diniy muassasa va tashkilotlarga sinfiycha yondashuv mazkazdan 1920 yildayoq avj oldirilgan bo‘lib, bu fronga Sovet hukumati va Kompartiyaning yetakchi arboblari: N.K.Krupaskaya, I.I.Skvorsov, B.S.Stepanov, A.V.Lunacharskiy, V.D.Bonch-Bruevich, P.A.Krasikov, Em.Yaroslavskiy, Ya.Rudzutak, A.I.Rikov, N.I.Buxarin, proletar shoir va yozuvchilardan A.M.Gorkiy, V.V.Mayakovskiy, D.Bedniy⁵ va hokazolar safarbar qilingan edi.

¹ KPSSsyezdlari, konfrensiyalari va Markaziy komitet plenumlarining rezolutsiyasiya, qarorlari. T., 1981, II tom. -S. 492-493.

² O‘sha manba, T., 1983, III tom – S. 81-86.

³ O‘zbekiston Kommunistik partiyasi s‘yezdlarining revolutsiyasi va qarorlari. T., 1957. I tom. S. 48, 50, 51.

⁴ Алексеев В. Иллюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991. -С.275.

⁵ Наука и религия. 1985. №12. -С.19.

Daxriylikka da'vat qiluvchi har qanday diniy e'tiqodlarga qarshi kurashga qaratilgan bolsheviklarning dastlabki matbuot organi 1921-yildayoq "Революция и церков" (Inqilob va cherkov), P.A.Krasikov muharrirligi ostida juda kata nusxada chop etila boshlagan edi.¹

Ushbu jurnalda har qanday dinning xalq uchun zararli ekanligi, "inqilobiy" vazifalarni ado etishda muhim g'ov bo'lishi, dindorlarning monarxiya va eski jamiyat tarafdorlari ekanliklari, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat qilish, ularni qo'paruvchilik, buzg'unchilik o'chog'iga aylanishiga yo'l qo'ymaslik va ayrim ruxoniylar namoyondalari shaxsini tahqirlovchi maqola, xabarlar e'lon qilib turildi. Nasroniy, islom, yaxudiy dinlarini, ayniqsa diniy bayramlar arafasida "fosh etuvchi" minglab nusxalarda varaqa va plakatlarda chop etilib, barcha o'lkalarga tarqatilgan.

ADABIYOT VA MANBALAR

1. *Qonun, din, cherkov. T.: O'zbekiston, 1987-B.49-50.*
2. *Buxoro Axbori. 88-son, 1922, 29 iyun (arab imlosida).*
3. *Buxoro Axbori. 89-son, 1922, 8 iyul, 1922, 15 iyul.*
4. *Buxoro Axbori. 212 son, 1923, 10 oktabr ro'yhat, Ozod Buxoro, 1-son, 1923, 16 oktabr.*
5. *Ozod Buxoro. 237 son, 1924, 25 iyul.*
6. *Казаков Э. политика привоительства Хорезмской Республики в отношении исламской веры и служителей культа (1920-1924 гг) Автореф. дис. ... кан инс. Наук. Т., 2001. - С. 21, 25.*
7. *KPSS s'yezdlari, konfrensiyalari va Markaziy komitet plenumlarining rezolutsiyasi, qarorlari. T., 1981, II tom. - S. 492-493.*
8. *O'zbekiston Kommunistik partiyasi s'yezdlarining revolutsiyasi va qarorlari. T., 1957. I tom. S. 48, 50, 51.*
9. *Алексеев В. Иллюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991. - С. 275.*
10. *Наука и религия. 1985. №12. - С. 19.*
11. *Алексеев В. Иллюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991. - С. 276.*

¹ Алексеев В. Иллюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991. - С. 276.